NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

BO‘ LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘ QITUVCHILARIDA DUAL TA’LIM ASOSIDA KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNI BAHOLASHNING KOMPETENSIYAVIY MEZONLARI VA DIAGNOSTIK INDIKATORLARI

Tumanov Uktamjon Fazliddin o‘ g‘ li
University of Business and Science
dotsenti, pedagogika fanlari
bo‘ yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0001-8348-8050
email: tumanov.uktamjon1992@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dual ta’lim tizimi sharoitida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini baholashning kompetensiyaviy mezonlari va diagnostik indikatorlari ilmiy asoslangan. Kasbiy faoliyatning motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlari bo‘ yicha baholash mezonlari hamda diagnostik indikatorlar tizimlashtirilgan. Shuningdek, bo‘ lajak o‘ qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajalarini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik tavsiflar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan baholash tizimi dual ta’lim sharoitida kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini obyektiv aniqlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘ zlar: *dual ta’lim, texnologik ta’lim, bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchisi, kasbiy faoliyat, kasbiy kompetensiya, baholash mezonlari, diagnostik indikatorlar, pedagogik diagnostika, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.*

КРИТЕРИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДЛЯ ОЦЕНКИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация: *В данной статье представлены научно обоснованные критерии компетентности и диагностические показатели для оценки готовности будущих учителей технологического образования к организации профессиональной деятельности в условиях дуальной системы образования. Систематизированы критерии оценки и диагностические показатели мотивационной, познавательной, операциональной и рефлексивной составляющих профессиональной деятельности. Также разработаны диагностические характеристики для определения уровня профессиональной подготовки будущих учителей. Предложенная система оценки служит для объективного определения уровня формирования профессиональных компетенций в условиях дуального образования и повышения качества образования.*

Ключевые слова: *дуальное образование, технологическое образование, будущий педагог технологического образования, профессиональная деятельность, профессиональная компетентность, критерии оценки, диагностические показатели, педагогический диагноз, компетентностный подход, профессиональная подготовка.*

COMPETENCY-BASED CRITERIA AND DIAGNOSTIC INDICATORS FOR ASSESSING THE ORGANIZATION OF PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON DUAL EDUCATION AMONG FUTURE TECHNOLOGY EDUCATION TEACHERS

Abstract: *This article provides a scientific basis for the competency-based criteria and diagnostic indicators used to assess the readiness of future technology education teachers to organize professional activities within a dual education system. A system of assessment criteria and diagnostic indicators has been established, covering the motivational, cognitive, operational, and reflective components of professional activity. Additionally, diagnostic profiles have been developed to determine the levels of professional readiness among future teachers. The proposed assessment system serves to objectively measure the level of professional competence development and enhance the quality of education in the context of dual education.*

Keywords: *dual education, technological education, future teacher of technological education, professional activity, professional competence, assessment criteria, diagnostic indicators, pedagogical diagnostics, competence-based approach, professional training.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida bo‘ lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini mehnat bozori talablariga muvofiq rivojlantirish hamda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash ustuvor ilmiy-pedagogik yo‘ nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dual ta’lim tizimi nazariy tayyorgarlik va ishlab chiqarish

amaliyotining uzviy integratsiyasini ta’minlovchi samarali ta’lim modeli sifatida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashkil etish kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samaradorligi kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini ilmiy asoslangan mezonlar va diagnostik indikatorlar asosida obyektiv baholash tizimini ishlab chiqishni talab etadi.

O‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son «O‘ zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘ g‘ risida»gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son «2022–2026-yillarga mo‘ ljallangan Yangi O‘ zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘ g‘ risida»gi Farmoni, shuningdek, O‘ zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘ g‘ risida»gi Qonunida ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, dual ta’limni keng joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari belgilangan.

Shunga qaramay, dual ta’lim sharoitida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini baholashning kompetensiyaviy mezonlari, diagnostik indikatorlari va tayyorgarlik darajalarini kompleks tavsiflovchi ilmiy-metodik yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini obyektiv baholash, ularning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda dual ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan diagnostik apparatni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois maqolada bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarida dual ta’lim asosida kasbiy faoliyatni tashkil etishni baholashning kompetensiyaviy mezonlari va diagnostik indikatorlarini ilmiy asoslash masalalari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Dual ta’lim asosida bo‘ lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va baholash masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Dual ta’limning pedagogik imkoniyatlari Michael Gessler tomonidan ishlab chiqarish va ta’lim integratsiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Olim dual ta’lim samaradorligini ta’lim muassasalari, korxonalar va ijtimoiy hamkorlar o‘ rtasidagi institutsional hamkorlik darajasi bilan izohlaydi. Uning fikricha, «Kasbiy kompetensiyalarni baholash faqat auditoriya natijalari bilan emas, balki ishlab chiqarish muhitida namoyon bo‘ ladigan kasbiy faoliyat ko‘ rsatkichlari asosida amalga oshirilishi lozim»[1;81-b.] deya ta’kidlaydi. Mazkur ilmiy qarash texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘ lib xizmat qiladi. Baholash nazariyasining zamonaviy rivojlanishida John Hattie formatif baholashning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslab bergan. Olimning fikricha, «Baholash ta’lim natijalarini qayd etish vositasi emas, balki o‘ quvchilarning keyingi rivojlanishini boshqarishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayondir»[2;104-b.]. Mazkur qarash dual ta’limda bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini monitoring qilish va diagnostik baholashni takomillashtirish imkonini beradi.

Dual ta’limning institutsional rivojlanish masalalari Philipp Gonon tomonidan tadqiq etilgan. Olim dual ta’lim samaradorligini ta’lim tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari va ijtimoiy hamkorlar o‘ rtasidagi hamkorlik sifati bilan izohlaydi. Shuningdek, «Kompetensiyalarni baholashda amaliy faoliyat natijalari, refleksiv tahlil va kasbiy moslashuv ko‘ satkichlarini kompleks hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi»[3;64-b.]. Ushbu yondashuv bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning kompetensiyaviy mezonlari va diagnostik indikatorlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Kasbiy ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilish sharoitida baholash tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish va mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning ustuvor yo‘ nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Linda Darling-Hammond kompetensiyaga asoslangan baholashni o‘ quvchilarning nazariy bilimlarini emas, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda bilim, ko‘ nikma va tajribalarini integrallashgan holda qo‘ llay olish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan pedagogik mexanizm sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, «Autentik baholash vositalari o‘ quv natijalarining ishonchliligini ta’minlash bilan bir qatorda kasbiy kompetensiyalarning shakllanish darajasini obyektiv aniqlash imkonini beradi»[4; 73-b.]. Mazkur yondashuv dual ta’lim sharoitida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholash mezonlari va diagnostik indikatorlariniishlab chiqishning konseptual asosini tashkil etadi.

Stephen Billett ish joyida o‘ qitish (Workplace Learning) nazariyasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy omili sifatida real ishlab chiqarish muhitida faol ishtirok etishni e’tirof etadi. Olimning fikricha, «Kasbiy kompetensiyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali rivojlanadi, ularni baholash esa mutaxassisning kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish darajasiga asoslanishi lozim» [5;56-b.]. David Guile dual ta’limni bilim va ishlab chiqarish tajribasining integratsiyasiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha «Kasbiy tayyorgarlikni baholashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda refleksiv va innovatsion faoliyat ko‘ rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini»[6;84-b.] ta’kidlaydi. Felix Rauner kompetensiyaga asoslangan kasbiy ta’lim nazariyasida kasbiy kompetensiyani real mehnat vazifalarini mustaqil va samarali bajarish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Olim «Kasbiy tayyorgarlikni baholash mezonlari ishlab chiqarish standartlari bilan uyg‘ unlashtirilishi zarurligini asoslaydi»[7;24-b.]. David Boud formatif baholash konsepsiyasida baholash jarayoni talabaning kasbiy

rivojlanishini qo‘ llab-quvvatlovchi uzluksiz pedagogik mexanizm bo‘ lishi lozimligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, «Refleksiv baholash kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi»[8;48-b.].

MDH olimlaridan A.V. Xutorskoy «Kompetensiyani shaxsning bilim, ko‘ nikma, faoliyat tajribasi va qadriyatlarining integratsiyalashgan natijasi sifatida talqin qiladi»[9;78-b.]. Olim ta’lim natijalarini baholash kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini aniqlashga yo‘ naltirilishi lozimligini ta’kidlaydi. I.A. Zimnyaya «Kompetensiyaviy yondashuvni zamonaviy ta’lim natijalarining metodologik asosi sifatida baholab, kompetensiyalarni motivatsion, kognitiv va amaliy faoliyatning integratsiyalashgan ko‘ rsatkichi»[10;29-b.] sifatida izohlaydi. E.F. Zeer «Kasbiy kompetensiyani mutaxassisning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi integral sifat sifatida»[11;124-b.]tavsiflaydi. Olim kompetensiyalarni baholashda kasbiy faoliyat natijalarini asosiy mezon sifatida e’tirof etadi.

I.S. Sergeyev kompetensiyaviy yondashuvni zamonaviy kasbiy ta’limning metodologik asosi sifatida baholab, ta’lim natijalari o‘ quvchilarning nazariy bilimlari emas, balki kasbiy faoliyatni samarali bajarishga tayyorlik darajasi orqali baholanishi zarurligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, «Kompetensiyalarni shakllantirish va baholash ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy integratsiyada tashkil etilishi kerak»[12;18-b.]. Yu.G. Tatur kompetensiyani mutaxassisning kasbiy vazifalarni mustaqil va samarali bajarish qobiliyatini ifodalovchi integral sifat sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, «Kompetensiyalarni baholash mezonlari bilim, amaliy ko‘ nikma, kasbiy tajriba va shaxsiy fazilatlarning uyg‘ unligini aks ettirishi lozim»[13;54-b.]. N.F. Talyzina faoliyat nazariyasiga asoslanib, «Kasbiy tayyorgarlikni baholash o‘ quvchilarning bilimlarni amaliy faoliyatga transfer qila olish darajasini aniqlashga qaratilishi zarurligini asoslaydi»[14;19-b.]. Olim kompetensiyalarni shakllantirish bosqichma-bosqich pedagogik boshqaruv orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi.

V.D. Shadrikov kasbiy kompetensiyani shaxsning intellektual salohiyati, kasbiy bilimlari va amaliy faoliyat tajribasining integratsiyalashgan tizimi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, «Kasbiy tayyorgarlikni baholash mezonlari mutaxassisning kasbiy muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatiga asoslanishi zarur»[15;36-b.]. A.K. Markova «Kasbiy kompetentlikni pedagogning kasbiy faoliyatni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirishini ta’minlaydigan psixologik-pedagogik sifatlar majmui sifatida»[16;89-b.] talqin qiladi. Olim kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv va refleksiv komponentlarini alohida ajratib ko‘ rsatadi. I.A. Kolesnikova»Pedagogik kompetensiyani pedagogning kasbiy faoliyatni loyihalash, tashkil etish va refleksiya qilish qobiliyatining integral ko‘ rsatkichi sifatida baholaydi»[17;42-b.]. Uning fikricha, pedagogik diagnostika kompetensiyalarni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

MDH olimlari kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari, kasbiy kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi hamda pedagogik diagnostika masalalarini keng yoritganlar. Biroq ularning tadqiqotlarida dual ta’lim sharoitida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashkil etishni baholashning kompetensiyaviy mezonlari, diagnostik indikatorlari va tayyorgarlik darajalarini ishlab chiqish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘ shliqni to‘ ldirishga qaratilgan.

Respublikamiz olimlaridan N.A. Muslimov»Bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini nazariy bilim, amaliy tayyorgarlik va shaxsiy fazilatlarning integratsiyasi sifatida tavsiflaydi»[18;43-b.]. Olim kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida ta’lim va amaliyot uyg‘ unligini e’tirof etadi. Q.T. Olimov bo‘ lajak o‘ qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy pedagogik omili ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, kompetensiyalarni baholash amaliy faoliyat natijalari orqali amalga oshirilishi zarur. Z.K. Ismoilova»Pdagogik kompetentlikni pedagogning innovatsion faoliyatni tashkil etish, pedagogik muammolarni hal qilish va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalovchi integral sifat»[19;51-b.] sifatida tavsiflaydi.

Shuningdek, O‘ .Q. Tolipov, Sh.S. Sharipov kabi respublikamiz olimlari texnologik ta’lim yo‘ nalishida talabalarning ijodiy-texnologik salohiyatini rivojlantirish, amaliy mashg‘ ulotlarni ishlab chiqarish bilan uzviy tashkil etish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Biroq, mavjud ilmiy izlanishlarda dual ta’lim integratsiyasi sharoitida bevosita bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashkil etish kompetensiyasini ko‘ p omilli baholash mezoni, mos indikatorlar tizimi va ularni tashxislashning pedagogik-metodik modeli yaxlit tadqiqot obyekti sifatida to‘ liq ochib berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, faoliyatli, tizimli va integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Ish jarayonida quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi:

Nazariy metodlar: mavzu bo‘ yicha falsafiy, pedagogik-psixologik va me’yoriy-huquqiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish, umumlashtirish;

Empirik metodlar: bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv, so‘ rovnoma-anketa, talabalar va ishlab chiqarish ustalarining ekspert baholash kartalari, kasbiy amaliy keyslar, portfeli tahlili;

Matematik-statistik metodlar: olingan diagnostik natijalarning ishonchliligini tasdiqlash uchun Styudent t-mezoni va Pirson korrelyatsiya tahlili.

Natijalar va tahlil: Olib borilgan nazariy-amaliy tadqiqotlar natijasida bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarida dual ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatni tashkil etish kompetensiyasining to‘ rtta o‘ zaro bog‘ liq mezoni va ularning diagnostik indikatorlari ishlab chiqildi:

Motivatsion-qadriyatli mezon: dual ta’lim muhitida kasbiy-pedagogik faoliyatga barqaror qiziqish, o‘ z kasbining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini anglash, ishlab chiqarish madaniyati va kasbiy etika qoidalariga sodiqlik.

Kognitiv-nazariy mezon: zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, materialshunoslik, konstruksiyalash va modellashtirish asoslarini chuqur bilish, dual ta’limni tashkil etishning me’yoriy-huquqiy hamda didaktik prinsiplarini o‘ zlashtirganlik.

Amaliy-texnologik (faoliyatli) mezon: zamonaviy texnologik uskunalar (shu jumladan, dasturiy boshqariladigan dastgohlar) bilan ishlash, o‘ quv-ishlab chiqarish jarayonlarini xavfsiz va samarali loyihalash, o‘ quvchilarning texnologik amaliyotini tashkil qilish va boshqarish ko‘ nikmalari.

Refleksiv-baholash mezoni: o‘ zining ishlab chiqarish va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qilish, kasbiy xatolarni o‘ z vaqtida aniqlash va tuzatish, ishlab chiqarish vaziyatlarida moslashuvchan qaror qabul qilish hamda doimiy o‘ z-o‘ zini rivojlantirish.

Ushbu mezonlar va indikatorlar asosida bo‘ lajak o‘ qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi uch bosqichli daraja tizimida tavsiflandi:

Mezonlar	Diagnostik indikatorlar	Shakllanganlik darajalari tavsifi (past, o‘ rta, yuqori)
Motivatsion-qadriyatli	Kasbiy motivatsiya, korxona madaniyatiga moslashuvchanlik	**Past:** Kasbga qiziqish barqaror emas, passiv ishtirok. **O‘ rta:** Vazifalarni mas’uliyat bilan bajaradi, tashabbus yetishmaydi. **Yuqori:** Kuchli ichki motivatsiya, ishlab chiqarish va ta’limga ijodiy yondashuv.
Kognitiv-nazariy	Texnologik bilimlar, didaktik va me’yoriy asoslarni bilish	**Past:** Faqat bazaviy nazariyani biladi, amaliyotga bog‘ lash qiyin. **O‘ rta:** Standart texnologik jarayonlarni tushunadi, yangiliklarni qiyin o‘ zlashtiradi. **Yuqori:** Texnologiya va pedagogika integratsiyasini to‘ liq egallagan, innovatsion bilimlarga ega.
Amaliy-texnologik	Dastgoh va asboblar bilan ishlash, jarayonlarni loyihalash	**Past:** Faqat ko‘ rsatma asosida ishlaydi, mustaqillik yo‘ q. **O‘ rta:** Standart vazifalarni mustaqil bajaradi, murakkab vaziyatlarda qiynaladi. **Yuqori:** Ishlab chiqarish uskunalarini erkin boshqaradi, amaliy mashg‘ ulotlarni mustaqil loyihalaydi.
Refleksiv-baholash	O‘ z-o‘ zini tahlil qilish, xatolarni tuzatish, moslashuvchanlik	**Past:** O‘ z faoliyatini obyektiv baholay olmaydi, tanqidga befarq. **O‘ rta:** O‘ z kamchiliklarini tushunadi, faqat tashqi ko‘ rsatma bilan tuzatadi. **Yuqori:** Tanqidiy tahlil kuchli, faoliyatini mustaqil korreksiyalaydi va takomillashtiradi.

Eksperimental tadqiqotlar jarayonida baholash vositalari sifatida an’anaviy testlardan tashqari *autentik baholash* (korxona sharoitidagi real vazifalar), *dual portfoliosi* (nazariy loyihalar va korxonada tayyorlangan namunalar to‘ plami) hamda *360 gradusli baholash usuli* (oliy ta’lim o‘ qituvchisi, korxona ustasi va talabaning o‘ zini o‘ zi baholashi) qo‘ llanildi. Bu esa subyektivlikni kamaytirib, diagnostika jarayonining aniqligini 25-30% ga oshirish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dual ta’lim tizimi bo‘ lajak texnologik ta’lim o‘ qituvchilarini mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh qilib tayyorlashning eng maqbul institutsional mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy mezonlar (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-nazariy, amaliy-texnologik, refleksiv-baholash) va ularga mos diagnostik indikatorlar talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini yaxlit, obyektiv va uzluksiz baholash imkoniyatini yaratadi. Ushbu diagnostik apparatni texnologik ta’lim fakultetlarida amaliyotga tatbiq etish nafaqat baholash sifatini yaxshilaydi, balki oliy ta’lim va sanoat korxonalari o‘ rtasidagi integratsiyani amaliy jihatdan yangi bosqichga ko‘ tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Gessler M., Peters S. (Eds.). Concepts of Apprenticeship: Strengths, Weaknesses and Pitfalls. Cham: Springer, 2020.

2.Hattie J. Visible Learning: The Sequel. London: Routledge, 2023.

3.Gonon P. The Future of the Dual Apprenticeship System. Springer Nature, 2022.

4.Darling-Hammond L., Flook L., Cook-Harvey C., Barron B., Osher D. mplications for Educational Practice of the Science of Learning and Development. Applied Developmental Science. Routledge, 2020.

5.Billett S. Learning through Practice: Models, Traditions, Orientations and Approaches. Dordrecht: Springer, 2010.

6.Guile D., Unwin L. The Wiley Handbook of Vocational Education and Training. Wiley Blackwell, 2019.

7.Rauner F., Maclean R. (Eds.). Handbook of Technical and Vocational Education and Training Research. Dordrecht: Springer, 2008.

8.Boud D., Falchikov N. Rethinking Assessment in Higher Education. London: Routledge, 2007.

9.Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. Москва, 2003.

10.Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

11.Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. Москва: Академия, 2003.

12.Сергеев И.С. Основы компетентностного подхода в образовании. Москва: Академия, 2010.

13.Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста. Москва: Высшая школа, 2004.

14.Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. Москва: Академия, 2008.

15.Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход. Москва: Логос, 2004.

16.Маркова А.К. Психология профессионализма. Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996.

17.Колесникова И.А. Педагогическое проектирование. Москва: Академия, 2005.

18.Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

19.Ismoilova Z.K. Pedagogik kompetentlik asoslari. Toshkent, 2020.